



TASDIQLAYMAN

“Kiberxavfsizlik markazi”

DUK Direktori

O.N.Mirzayev

2025-yil

Cyberkent 3.0 doirasida “Blue team” musobaqasi saralash bosqichini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

So‘nggi yillarda axborot va kiberxavfsizlik sohalarining rivojlanishi hayotning ko‘p sohalariga ta‘sir ko‘rsatdi. Barcha sohalarda raqamlashtirishning kirib kelishi hamda axborot tizimlarining kiberxavfsizligi ta‘minlanishi, yuqori suratdagi taraqqiyot, sohalarning rivojlanishida, ayniqsa uzoq muddatli istiqbol uchun katta ro‘l o‘ynamoqda.

Shuni inobatga olgan holda, Kiberxavfsizlik markazi tomonidan sohaga qiziquvchan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va tarbiyalashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, joriy yilning 7-8 oktyabr kunlari “Kiberxavfsizlik sammiti – Markaziy Yevroosiyo, CSS 2025” o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Dastur doirasida “Cyberkent 3.0” Respublika o‘quv amaliyoti ham bo‘lib o‘tadi. Ushbu o‘quv amaliyotda “Blue Teams” hamda “Red Teams” yo‘nalishlarida bellashuvlar bo‘lib o‘tishi belgilangan. Mazkur musobaqa “Blue Teams” yo‘nalishida qatnashuvchi jamoalarni saralash uchun tashkil etilgan bo‘lib, musobaqa yakunlariga ko‘ra **10 ta jamoa** saralab olinadi.

1- bob. Umumiy qoidalar

1.1.Musobaqa maqsadi kiberxavfsizlik sohasida mutaxassislik bilimlarini oshirish, axborotkommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish, xavfsizlik masalalari va ularning hal qilinishi bo‘yicha yoshlar orasida qiziqishni oshirish.

1.2.Ushbu bellashuv turli jamoalar ishtirokida amalga oshiriladi.

1.3.Musobaqada ishtirok etish mutlaqo bepul.

1.4.Musobaqada faqat O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qatnashishi mumkin.

1.5.Musobaqa jamoa tarkibida o‘tkaziladi. Jamoa a‘zolari soni 3 nafardan 5 nafargacha bo‘lishi mumkin.

1.6.Tanlovda faqatgina oldindan ro‘yxatdan o‘tgan jamoalar ishtirok eta oladi.

1.7. Ishtirokchilar shaxsni tasdiqlovchi hujjatdagi ism va familiya bilan ro'yxatdan o'tishlari kerak.

1.6. Musobaqa to'liq onlayn (online) formatda o'tkaziladi.

1.7. Ishtirokchilar musobaqadagi ishtirokini amalga oshirishi uchun quyidagi "[https:// defence.cyberkent.uz](https://defence.cyberkent.uz)" platformasining tegishli bo'limi

"[https:// defence.cyberkent.uz/registration](https://defence.cyberkent.uz/registration)" dan ro'yxatdan o'tishlari zarur.

1.8. Ishtirokchilar bir vaqtning o'zida turli guruhlarda qatnashishi qat'iyon taqiqlanadi.

1.9. "Blue Teams" musobaqasi saralash bosqichi 5 ta yo'nalishni o'z ichiga qamrab olishi mumkin:

№	Yo'nalishlar
1.	Tarmoq tahlili
2.	Suqilib kirishni aniqlash
3.	Raqamli kriminalistika va tizim tahlili
4.	Zararli dasturlarni tahlili
5.	Kiberxavfsizlik hodisalariga chora ko'rish va monitoring

1.10. Tashkilotchilar quyidagi huquqlarga ega:

1.10.1. ishtirokchilarni oldindan ogohlantirmasdan musobaqa ssenariylarini o'zgartirish;

1.10.2. ishtirokchi guruh a'zolarini oldindan ogohlantirmasdan infratuzilma tarkibini o'zgartirish.

1.11. Ishtirokchilarga quyidagilar taqiqlanadi:

1.11.1. Hakamlar hay'ati serverlariga va avtomatlashtirilgan xizmatlarni qo'llab-quvvatlash hamda yechimlarni tekshirish tizimga hujum qilish.

1.11.2. Asossiz katta miqdordagi trafikni yaratish, xizmatni rad etish (DoS va DDoS) hujumlarini uyushtirish, CTF platformasining ishchi holatiga ta'sir qiladigan barcha harakatlar ta'qiqlanadi.

1.11.3. Jamoalar o'rtasida kalit so'zlarni ulashish, almashish yoki nashr qilish qat'iyon taqiqlanadi.

1.11.4. CTF kalit so'zlarini qabul qilish tizimining zaifliklaridan har qanday maqsadda foydalanish.

1.11.5. Bir nechta akkauntidan foydalanish.

- 1.11.6. Avtomatlashtirilgan skanerlardan foydalanish.
- 1.11.7. Belgilanganlaridan boshqa har qanday mashinaga hujum qilish.
- 1.11.8. Hisob jadvalini o'zgartirish.
- 1.11.9. Boshqa jamoalarning kalit so'zlarni topishiga qasddan to'sqinlik qilish.
- 1.11.10. Ushbu qoidalarni buzgan har qanday ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi va kelgusi tadbirlarda qatnashishi taqiqlanishi mumkin.
- 1.11.11. Ishtirokchilar tanlov jarayoni rasmiy yakunlanmaguncha vazifalar va ularni yechimi to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini oladilar.
- 1.12. Ishtirokchilar axloq kodeksiga rioya qilishlari kerak. Qoidalarni buzilgan jamoani tashkilotchi diskvalifikatsiya qilish huquqni o'zida saqlab qoladi.
- 1.13. Musobaqa tugagandan so'ng apellatsiyalar qabul qilinmaydi.

2- bob. Musobaqa o'tishi tartibi va qoidolari.

- 2.1. Musobaqa boshlanish va tugash vaqtlari [“defence.cyberkent.uz”](https://defence.cyberkent.uz) platformasining tegishli havolasida (<https://defence.cyberkent.uz/about>) e'lon qilinadi.
- 2.2. Har bir jamoa ishtirokchilar ro'yxatini, nomini va jamoa sardori uchun aloqa ma'lumotlarini taqdim etishi lozim.
- 2.3. Musobaqa davomida aloqa uchun kiritilgan bog'lanish manbalari (telefon raqam, elektron pochta manzili) faol bo'lishi shart.
- 2.4. Ishtirokchilar jamoa nomini ro'yxatdan o'tkazishda haqoratomuz taxalluslardan foydalanish taqiqlanadi.
- 2.5. Ro'yxatdan o'tish ishtirokchilarning ushbu qoidalarga roziligini bildiradi va tashkilotchilarga shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjarlariga muvofiq ma'lumotlarni qayta ishlash huquqini beradi.
- 2.6. Ishtirokchi ushbu nizomning bir yoki bir nechta bandlariga rozilik berilmagan holatda jamoa musobaqada qatnashishga ruxsat berilmasligi mumkin.
- 2.7. Ishtirokchilar yuqorida keltirilgan yo'nalishlarga tegishli bo'lgan topshiriqlarni jamoa tarkibida bajarishlari zarur.
- 2.8. Har bir topshiriqda ishtirokchilar kalit so'zlarni topishlari va platformaga tekshirish uchun kiritishlari lozim bo'ladi.

2.9. Ishtirokchilar tomonidan kiritilgan kalit soʻzlar platformadagi kalit soʻzlar bilan mos tushganda toʻgʻri deb topiladi.

2.10. Topshiriqlar murakkablik darajasiga koʻra turli koʻrinishda baholanadi. Topshiriq uchun beriladigan ballar har bir topshiriqda yozilgan boʻladi.

2.11. Jamoalarning topshiriqlarni bajarishdagi natijalari va yigʻilgan ballarining monitoringi onlayn (online) koʻrish imkoniyati yaratiladi.

2.12. Topshiriq bir jamoa tomonidan toʻgʻri bajarilgan taqdirda, ushbu topshiriq uchun ajratilgan ball ikkinchi jamoa uchun maʼlum ball qiymatga pasayadi (Masalan: 1- jamoa 1- topshiriqni toʻgʻri bajarsa 200 ball, undan keyin 2- jamoa 1- topshiriqni toʻgʻri bajarsa 190 ball beriladi).

2.13. Topshiriqning murakkablik darajasiga koʻra maslahat (hint)lar boʻlishi mumkin. Maslahatlar bepul yoki ball (point) evaziga boʻlishi mumkin. (Masalan: jamoa biror topshiriqni bajarish uchun qiynalayotgan boʻlsa maslahat (hint) boʻlimidan bepul yoki maʼlum ball evaziga maslahat olishlari mumkin).

2.14. Baʼzin bir topshiriqlarda har bir jamoa uchun alohida bayroqlar shakillantiriladi. Bir jamoa uchun berilgan bayroqni boshqa jamoa tizimga kiritisa ikkala jamoa uchun ham ballar ayrilishi mumkin.

2.15. Musobaqa yakunlanishidan 30 daqiqa oldin, ballar jadvali muzlatiladi (freez time), testkari sanoq boshlanadi. Testkari sanoq tugaganda ballar jadvalidagi oʻzgarishlar yangilanadi va musobaqa tugatiladi.

3-bob. Baholash mezonlari va mukofotlash tartibi.

3.1. Musobaqa jarayoni onlayn (online) boʻlib oʻtishi munosabati bilan musobaqa natijalari defence.cyberkent.uz platformasida onlayn (online) tartibda koʻrsatib boriladi.

3.2. Musobaqa yakunida eng yuqori ball olgan 10 ta jamoa gʻolib deb topiladi.

4-bob. Yakuniy qoidalar:

Tashkilotchi bir tomonlama ushbu musobaqaga oʻzgartirish kiritish huquqiga ega. Qoidalarning amaldagi tahriri veb-saytda chop etilgani hisoblanadi. Ishtirokchilar oʻzgarishlar uchun veb-saytni muntazam ravishda tekshirishlari shart.

Masʼuliyat:

Tashkilotchi ishtirokchilarning apparat yoki dasturiy taʼminotiga yetkazilgan har qanday zarar uchun javobgar emas.

Baholash:

Dinamik ko‘rinishda, savollarning murakkabligiga qarab belgilanadi va avtomatik ravishda hisoblanadi. Bir xil ball yig‘gan ishtirokchilar topshiriqni bajarish vaqti bo‘yicha tartiblanadi. Ishtirokchi jamoalarga jarayonni onlayn kuzatib borish imkoniyati yaratiladi.

5-bob. Fors-major holatlar

5.1. Fors-major holatlari yuzaga kelgan taqdirda musobaqa bekor qilinishi yoki boshqa vaqtga ko‘chirilishi mumkin. Tashkilotchilar ishtirokchilarni sanalardagi har qanday o‘zgarishlar haqida xabardor qiladilar.

5.2. Musobaqa davomida yuzaga keladigan barcha munozarali masalalar tashkilotchilar tomonidan amaldagi qonunchilik normalarini hisobga olgan holda ko‘rib chiqiladi. Agar nizoni muzokaralar yo‘li bilan hal qilishning iloji bo‘lmasa, masala tashkilotchilar joylashgan joyda sudda hal qilinadi.

5.3. Ushbu nizomda ko‘zda tutilmagan va tartibga solinmangan barcha masalalar O‘zbekiston Respublikasi Qonunchiligi asosida tartibga solinadi.